QASHQADARYO VILOYATI
QARSHI TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

180200, Qarshi tumani, Amir Temur shoh ko‘chasi, 19-uy. Telefon/faks: (+99875) 572-16-24, qarshit@exat.uz

2022 - yil 28 - iyun 282-4-59-Q/22 Qarshi tuman hokimligi

Qarshi tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy tusdagi ayrim qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Qarshi tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Axborot xizmati (T.Turdiyev) mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimning birinchi o‘rinbosari N.Turdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b **B.Yusupov**

Qarshi tuman hokimining
2022 yil 28 iyundagi
282-4-59-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Qarshi tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO‘YXATI

1. Qarshi tuman hokimining “Qarshi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 2019-yil 19-avgustdagi X-7413/08-sonli qarori.

2. Qarshi tuman hokimining “Qarshi tumanida maktab yoshidagi bolalarni umumiy o‘rta ta’limga to‘liq qamrab olish yuzasidan tumandagi umumta’lim muassasalarining mikrohududlarini belgilash to‘g‘risida”gi 2020-yil 6-avgustdagi HQ-1322/08-sonli qarori.